

ANALYSIS OF THE ASSESSMENT OF THE QUALITY OF EDUCATION IN GENERAL EDUCATION SCHOOLS BASED ON FOREIGN EXPERIENCE

Shamuratov Rustam Shakhakimovich

Associate Professor of the National Pedagogical University of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Ulugbekova Shaxzoda Ismatillo qizi

Student of the National Pedagogical University of Uzbekistan

Utaniyazova Shahrizoda Ulug'bek qizi

Student of the National Pedagogical University of Uzbekistan

Abstract

This article analyzes the assessment of education quality in general secondary schools based on international experiences. The effectiveness of competency-based assessment and pedagogical monitoring approaches used in Finland, Singapore, and South Korea is highlighted. The study concludes that adapting international practices to the local context plays an important role in improving overall educational outcomes.

Keywords: Education quality, assessment system, international experience, monitoring, competency-based approach, formative assessment, summative assessment, student performance, teacher qualification, general education school.

Introduction

XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING TAHLILI

Shamuratov Rustam Shaxakimovich

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ulug'bekova Shaxzoda Ismatillo qizi

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti talabasi

Utaniyazova Shahrizoda Ulug'bek qizi

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya

Maqolada umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning mazmuni xorijiy tajribalar asosida tahlil qilinadi. Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarida qo'llaniladigan kompetensiyaga yo'naltirilgan baholash va pedagogik monitoring yondashuvlarining samaradorligi yoritiladi. Xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida asoslanadi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, baholash tizimi, xalqaro tajriba, monitoring, kompetensiya, formativ baholash, summativ baholash, o'quvchi natijadorligi, o'qituvchi malakasi.

АНАЛИЗ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Шамуратов Рустам Шахакимович

доцент Национального педагогического университета Узбекистана, доктор
философии по педагогическим наукам (PhD)

Улутбекова Шахзода Исматилло қизи

студент Национального педагогического университета Узбекистана

Утаниязова Шахризода Улуғбек қизи

студент Национального педагогического университета Узбекистана

Аннотация

В статье проводится анализ оценки качества образования в общеобразовательных школах на основе зарубежного опыта. Рассматриваются эффективные подходы компетентностного оценивания и педагогического мониторинга, применяемые в Финляндии, Сингапуре и Южной Корее. Утверждается, что адаптация международного опыта к национальным условиям способствует повышению эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: качество образования, система оценки, международный опыт, мониторинг, компетентностный подход, нормативные оценивание, суммативное оценивание, учебные результаты, квалификация учителя.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi inson kapitalini shakllantirishning asosiy omili sifatida e'tirof etiladi. Umumta'lim maktablari esa shaxsning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda hal qiluvchi bosqich bo'lib, ta'lim jarayonining

samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim sifatini qanday baholashga bog'liq. Ta'lim sifati faqat o'quvchining egallagan nazariy bilimlari bilan cheklanmay, uning faol fikrlashi, amaliy vaziyatlarda yechim topa olishi, jamoada ishlashi va yangicha qarashlarni ilgari surish qobiliyatlari orqali namoyon bo'ladi. Shu bois baholash tizimi nafaqat nazorat funksiyasini, balki o'quvchi rivojlanishini doimiy kuzatish va ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi mohiyatga ega bo'lishi lozim.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifati yuqori bo'lgan davlatlarda baholash jarayoni o'quvchining o'sish dinamikasiga, individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va o'qituvchining pedagogik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi. Finlandiya, Singapur va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda baholash tizimi shaffof yondashuv, metodik yordam, samarali muloqot va o'quv jarayonining uzluksiz monitoringi tamoyillariga tayanadi. Bu tizimda baholash o'quvchini jazolash yoki saralash vositasi sifatida emas, balki rivojlantirish va yuksaltirish mexanizmi sifatida qaraladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda baholash mezonlarini takomillashtirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarni joriy etish, diagnostik hamda formatif baholash amaliyotlarini kengaytirish yo'nalishida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqot xorijiy tajribalarni ilmiy asosda o'rganish orqali ularning milliy ta'lim amaliyotiga mos ravishda tatbiq etish imkoniyatlarini tahlil qiladi va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan istiqbolli yo'nalishlarni asoslab beradi.

Asosiy qism

Xorijiy mamlakatlarda umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholash tizimlari ikki asosiy yo'nalishda shakllangan: tashqi va ichki baholash. Tashqi baholash milliy va xalqaro standartlar asosida amalga oshiriladi, bu esa o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini taqqoslash hamda ta'lim tizimining samaradorligini baholash imkonini beradi. Masalan, PISA (Programme for International Student Assessment) va TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) kabi xalqaro tadqiqotlar orqali o'quvchilarning matematik, tabiiy fanlar va o'qish ko'nikmalari xalqaro miqyosda solishtiriladi. Ushbu tadqiqotlar nafaqat kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga yordam beradi, balki davlat va maktab darajasida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan strategik qarorlarni qabul qilishda asosiy indikator sifatida xizmat qiladi.

Ichki baholash tizimlari esa maktab ichidagi pedagogik jarayonlarni doimiy kuzatish, o'qituvchilarning metodik faoliyatini baholash, o'quvchilarning individual yutuqlarini monitoring qilish va ularning o'zlashtirish darajasini aniqlashga qaratilgan. Finlyandiya va Yaponiya tajribasida ichki baholash maktab hayotining ajralmas qismi sifatida tashkil etilgan. U yerda pedagoglar muntazam ravishda o'quv jarayonini tahlil qiladi, o'quvchilar bilan individual suhbatlar o'tkazadi va o'qituvchilar hamkorlikda o'quv dasturlarini takomillashtiradi. Shu yo'l bilan, baholash natijalari nafaqat o'quvchilarni baholash, balki o'quv jarayonini sifatli boshqarish va takomillashtirish vositasi sifatida ishlatiladi.

Innovatsion texnologiyalar va raqamli tizimlar ham ta'lim sifatini baholashda muhim rol o'ynaydi. Onlayn testlar, elektron portfoliolar, interaktiv baholash vositalari orqali o'quv jarayoni real vaqt rejimida monitoring qilinadi va individual yondashuvni ta'minlash mumkin bo'ladi. Masalan, Kanada va Singapur maktablarida o'quvchilarning bilim darajasi va ko'nikmalari muntazam ravishda raqamli tizimlar orqali tahlil qilinadi, bu esa pedagoglarga o'quv jarayonini moslashtirish va o'quvchilar ehtiyojiga qarab qo'shimcha yordam ko'rsatish imkonini beradi.

Shuningdek, xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini baholash tizimlari nafaqat natijaviylikni oshiradi, balki pedagogik jarayonlarni optimallashtiradi va o'qituvchilarni professional rivojlantirishga yordam beradi. Baholash jarayonida ota-onalar, maktab rahbariyati va jamiyatning boshqa vakillari bilan hamkorlik qilish, o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Finlyandiya maktablarida baholash natijalari maktabning rivojlanish strategiyasini shakllantirishda va pedagoglarning malakasini oshirish dasturlarini yaratishda asosiy omil hisoblanadi.

Hozirgi paytda davlatimiz tomonidan ushbu baholash dasturlarga tayyorgarlik ko'rish yuzasidan bir qator ustuvor vazifalar belgilab qo'yildi. Ularga, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "PISA" (The Programme for International Student Assessment) O'quvchilarni baholash xalqaro dasturi reytingida O'zbekistonning 2021-yilda birinchi 70 talikka, 2025-yilda 60 talikka va 2030-yilga kelib esa, birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlar qatoriga kiritish ko'zda tutildi. PISA dasturi doirasidagi tadqiqotlar 2020-yilning aprel-may oylarida, asosiy tadqiqotlar esa 2021-yilning aprel-may oylarida o'tkazilishi belgilangan edi, ayni vaqtda dunyo bo'ylab keng tarqalgan koronavirus bilan bog'liq pandemiya sharoitida rejalashtirilgan tadqiqotlar vaqtincha to'xtatildi. 2020-yilda mo'ljallangan tajribasinovlar 2021-yilning aprel-may oylarida, 2021-yilga mo'ljallangan asosiy tadqiqot esa 2022-yilning aprel-may oylarida o'tkazildi. Tadqiqotning 3 yillik davriyligini inobatga olgan holda, 2024-yilga mo'ljallangan tadqiqotlar ham, o'z navbatida, 2025-yilga ko'chirildi.

2019 yil 29 apreldagi PF-5712 farmoniga ko'ra, ta'lim tizimini mazmunini sifat jixatidan yangilash va malakali professional pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish maqsadida xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o'quvchilarni o'qish, matematika va tabiiy fanlar yo'nalishidagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan PISA (Programme for International Student Assessment) umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish, yangilangan ta'lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko'nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish tartibi belgilandi. Shuningdek, iqtidorli bolalar va istedodli yoshlar bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratish bo'yicha 2019-2021 yillar davomida respublikaning xar bir xududida bosqichma- bosqich STEAM (fan, texnologiya, injinering, sa'nat va matematika) yo'nalishlariga ixtisoslashtirilgan "Prezident maktablari"

tashkil etish, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatga ega pedagogik jamoasini umumta'lim maktablarida iqtidorli bolalar bilan ishlashga va ta'lim sifatini baholashga jalb qilish vazifalarining dolzarbligi ko'rsatildi.

PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

TIMSS – 4- va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini baholash;

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish;

PISA – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash.

EGRA va EGMA esa boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha ko'nikmalariga baho beradi.

Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondashuvlar O'zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun moslashtiriladi. Bu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.

Maktabdagi ta'lim sifatini monitoring qilishga qaratilgan PISA dasturi asosiy uch yo'nalishda:

- 1) O'qish.
- 2) Matematika.
- 3) Ijtimoiy fanlar savodxonligi bo'yicha olib boriladi.

Birgina 2015-yilning o'zida 70 dan ortiq davlatlar PISA xalqaro dasturi sinovida ishtirok etgan. Umuman olganda, PISA dasturi davlatlarning ta'lim sohasidagi siyosatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Har bir davlat o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida o'zining ta'lim sohasidagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab, boshqa davlatlarga nisbatan mavqei ko'radi hamda ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini takomillashtirishda o'z yo'nalishlarini va strategiyasini belgilab oladi.

PISA sinovlarida to'rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

- bir javobli testlar;
- bir nechta javobli testlar;
- qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar;
- biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzuvchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab quvvatlanadi).

PISAning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: O'qish savodxonligi:

Insonning matn shaklida berilgan ma'lumotlarni tushuna olishi va ularga reaksiya bera olish ko'nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o'qigan ma'lumotlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati. Bu yerda

o'qish savodxonligi tushunchasi keng ma'no kasb etadi. Bu yo'nalish maqsadi o'quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo'llanmalar, geografik kartalar kabi rang-barang tematikadagi tarkibida matnni ochib berishga mo'ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushunishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o'qiganlari haqida o'z fikrini bera olishi kabi kompetentsiyalarini aniqlash hisoblanadi. Matematik savodxonlik: Insonning matematikaning o'zi yashayotgan olamdagi o'rnini bilishi, matematik jarayonlarni to'g'ri va to'liq asoslay olishini tekshiradi. PISA savollarini qo'llashda o'quvchilarda nafaqat savodxonlik balki insonparvarlik, erkinlik, tashabbuskorlik, hamkorlik, muammoli, loyihali, evristik, mustaqillik kabi kompetentlikni shakllantirishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, samarali baholash tizimi maktablar faoliyatini kompleks tarzda tahlil qilish, o'quvchilarning individual yondashuvini ta'minlash, pedagogik jarayonlarni optimallashtirish va ta'lim siyosatini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Shu yo'l bilan, mamlakatlar ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan strategik chora-tadbirlarni samarali amalga oshiradi, o'quvchilarning bilim darajasi va ijtimoiy kompetentsiyalarini yuqori darajada shakllantiradi hamda butun ta'lim tizimining barqarorligini ta'minlaydi.

Xulosa

Umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish bugungi globallashtirish sharoitida ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, samarali baholash tizimi faqat nazorat va natijani aniqlash vositasi emas, balki ta'lim jarayonini boshqarish, o'quvchilarning o'sish dinamikasini kuzatish, o'qituvchining kasbiy rivojlanishini rag'batlantirish hamda maktabning umumiy strategik yo'nalishini belgilashda faol mexanizm sifatida xizmat qiladi. Finlyandiya, Singapur, Yaponiya va Kanada kabi mamlakatlar tajribasi ta'lim sifati oshirishida diagnostik va formatif baholashning ahamiyati, raqamli monitoring vositalarining qo'llanilishi, shaffoflik va hamkorlik muhitining shakllanishi hal qiluvchi omil ekanini tasdiqlaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimida oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish, o'qituvchilarning malakasini oshirish, baholash mezonlarini qayta ko'rib chiqish va xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish ta'lim sifatini yaxshilash uchun muhim poydevor yaratmoqda. Endilikda asosiy vazifa baholash tizimini maktab amaliyotiga to'liq integratsiya qilish, raqamli baholash hamda individual yondashuvni kuchaytirish va baholash natijalarini ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirishdan iborat.

Shu tariqa, ta'lim sifatini baholash tizimini xalqaro andozalar asosida rivojlantirish O'zbekistonda ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning intellektual va ijtimoiy kompetentsiyalarini rivojlantirish, shuningdek, jamiyatning kelgusi taraqqiyotiga munosib kadrlar tayyorlash imkonini beradi. Mazkur jarayon izchil davom ettirilsa, umumta'lim

maktablari nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida yanada kuchayadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2021 yil 18-yanvardagi 23-son qarori (<https://lex.uz/docs/-5234746?ONDATE=19.01.2021%2000>).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
3. Meliqo'ziyev D.J. "PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O'QUVCHILARNING TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH", Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89., 57 bet.
4. PISA 2021 Mathematics Framework (First Draft).
5. Matkarimov M.A. "PISA" xalqaro o'quvchilarining savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari/ "Zamonaviy ta'lim" jurnali, №8(93) 2020 yil.
6. Abdurazaqova A. B. PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH. Results of National Scientific Research International Journal 2024 Volume 3| Issue 6 SJIF- 5.8, Researchbib 7.9 ISSN: 2181-3639